

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA KEKSALAR TAJRIBASINING AHAMIYATI**Jumayeva Guljahon O'ralovna**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530344>

Annotatsiya. Maqola oilada yoshlarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda keksalar va ularning boy hayotiy tajribasidan foydalanish, keksalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning oiladagi, jamiyatdagi, farzand tarbiyasidagi o'rni, ularni ijtimoiy himoyalash, qadrlash, avlodlar vorisligini ta'minlashdagi roli, yoshlarni tarbiyalashdagi xizmatlari nimalardan iborat ekanligi to'g'risida mulohazalardan iborat.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, keksalar, yosh avlod, qadriyat, tajriba, munosabat.

THE SIGNIFICANCE OF THE EXPERIENCE OF THE ELDERLY IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Abstract. The article is about the use of the elderly and their rich life experience in raising young people as mature individuals in the family, increasing the social activity of the elderly, their role in the family, society, in raising children, their social protection, appreciation, their role in ensuring the succession of generations, what are their services in educating young people consists of comments about.

Key words: family, upbringing, elders, young generation, value, experience, attitude

ЗНАЧЕНИЕ ОПЫТА СТАРШИХ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В статье речь идет об использовании пожилых людей и их богатого жизненного опыта в воспитании молодых людей как зрелых личностей в семье, повышении социальной активности пожилых людей, их роли в семье, обществе, в воспитании детей, их социальной защите, признании, их роль в обеспечении преемственности поколений, в чем заключаются их заслуги в воспитании молодежи, о чем состоят комментарии.

Ключевые слова: семья, воспитание, старшие, молодое поколение, ценности, опыт, отношение.

Jahon aholisi tarkibida keksalar ulushining o'sib borishi bilan "qarilik" umumbashariy demografik muammolardan biri sifatida kun tartibiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "keksayish jarayoni dunyo bo'yicha 6,8 foizni tashkil etadi, jumladan, Yevropa va MDH davlatlarida 11,4 foizni, sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda 18,3 foizni, 2015-yildan 2050-yilga qadar dunyo bo'yicha 60 yoshdan oshgan aholi 12 foizdan 22 foizga oshib boradi[5]

Bugungi kunda aholining hayot sifatini yanada oshirish, Jumladan, keksalarning ijtimoiy faolligini oshirish, himoya qilish va turmush darajasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqimizning keksa avlod vakillariga doimo hurmat-ehtirom ko'rsatish borasidagi milliy an'analar va insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda keksalar davlat himoyasiga olingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega", deb belgilangan[1].

Keksalarni, avvalo, boy hayotiy tajribaga ega, hayotning achchiq- chuchugini ko'rgan insonlar sifatida ulug'laymiz. Inson tabiatning eng oliy ne'mati, betakror hilqatidir. Inson tug'iladi, parvarishga muhtoj bo'ladi, ota-onasi, yaqinlari uni tarbiyalab, oyoqqa turg'azadi, keyin o'zi boshqalarni tarbiyalaydi, nasl qoldiradi, avlodini davom ettiradi, keksayib, yana eng yaqin insonlarining yordamiga muhtoj bo'ladi. Odamlar hayotiy bosqichlarining mo'tadil kechishi uchun jamiyat va oilada zamin tayyorlaydi. Bu tayyorgarlik xalqlarning turli urf-odatlarida, axloqiy qadriyatlari va e'tiqodlarida o'z ifodasini topgan. Shu bois, jamiyat va oilada keksalarga munosabat ham shular jumlasiga kiradi. Umuman olganda, keksalarni hurmat qilish, e'zozlash umuminsoniy fazilat hisoblanadi.

Boy ma'naviy merosimiz negizida keksalarga munosabat asosiy o'rin egallaydi. Agar keksa avlodga munosabatda milliy va umuminsoniy tamoyillarga asoslanmasak, avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlay olmaymiz. Inson yaxshi va uzoq yashashi uchun sog'lom turmush kechirishi lozim. Shu bois, keksalarni hurmat qilish, ular sog'lom turmush sharoitida yashashlari uchun imkoniyat yaratib berish, keksalar va faxriylarning boy hayotiy tajribalaridan foydalanish, yoshlar tarbiyasidagi ishtirokini ta'minlash oiladan boshlanadi.

O'zbek oilalarida Sharq madaniyatiga xos ijtimoiy va etnomadaniy xususiyatlar ham o'z ifodasini topadi. Chunki, musulmon mamlakatlarida oilada ota-ona, farzand, er-xotin va boshqalar o'rtasidagi munosabatda axloqiy burch muammolari hamda axloq normalariga alohida e'tibor beriladi.

Yosh avlod ijtimoiy hayotda ishtirok etar ekan, keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Pensiyalar darajasi uncha baland bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda qariyalar, asosan, farzandlari qaramog'ida bo'ladi, tabiiyki, ularning ehtiyojlarini farzandlari ta'minlaydi. Pensiya darajasi yuqori hisoblangan rivojlangan mamlakatlarda qariyalar asosan yolg'iz yashaydi (40%), ularning 20 foizi farzandlari bilan istiqomat qiladi. Qariyalarning juda oz qismigina moliyaviy tomondan farzandlariga qaram bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda oilaning keksa a'zolari kamroq, biroq ular barqaror daromadga ega ekanligi kuzatilmoqda. Amerikadagi aholini ro'yxatga olish mahkamasining ma'lumotlariga ko'ra, 25-34 yoshli odam o'z ota-onasiga ko'rsatgan yordamga qaraganda, farzandlari yigirma baravar ko'proq yordam oladi. Hatto 35-44 yoshlilar uchun ham bu nisbat tegishli ravishda beshdan bir qismini tashkil qiladi. Tafovut nafaqat mamlakatlarning farovonlik darajasida, balki madaniyatlarining turli-tumanligi - G'arbnig individual, Sharqning korporativ madaniyatida ham ko'zga tashlanadi. Shimoliy Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalarning oila bilan aloqasi mustahkam emas. Yaponiya, Xitoy, Sharqiy va Markaziy Osiyoda qariyalar asosan farzandlari bilan bitta oilada istiqomat qilishadi.

Sharqiy Osiyo aholisi konfutsiylik tamoyillariga muvofiq holda oilaviy axloqqa bolalikdan odatlanadi, chunki ularning ijtimoiylashuvi aksariyat hollarda ko'p avlodli oila sharoitida yuz beradi. Bu yerda qadriyatlarining avloddan-avlodga o'tishida buva va buvilar muhim rol o'ynaydi.

Yaponiyada qariyalarning 33 foizi uch avlodli oilalarda yashaydi, AQShda esa bunday munosabatlar atigi 1 foizni tashkil qiladi. Osiyoning ko'pgina mamlakatlari kabi, Yaponiya qonunlari balog'at yoshidan o'tgan farzandlarga keksa ota-onasiga qarash yoki ularni rasman ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

Bugungi kunda Osiyo xalqlari dunyo miqyosida avj olayotgan ommaviy madaniyat ko'rinishlaridan qattiq tahlikaga tushmoqda. Xitoy oilalarida farzandlik burchi, mas'uliyati kabi tushunchalar tobora susayib, zaiflashib borayotgani tashvish uyg'otmoqda. Qariyalardagi hayotiy tajriba, aql-zakovat yoshlardagi kuch- g'ayratni, tashabbuskorlikni to'g'ri sarflashga, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikka, ogohlikka da'vat etmoqda.

Ma'lumki, Sharq xalqlari hayoti oilaviy turmush tarziga asoslangan. Oila, oilaviy munosabatlar ijtimoiy ishlab chiqarish va mafkuraviy-siyosiy tuzumga bog'liq bo'lsa-da, oilaning an'anaviy asosiy urf-odatlarini ko'p asrlardan beri ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Ammo bu an'ana hamda marosimlarning mustahkamligi va davomiyligi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bir xil bo'lmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy omillarning asosiy xususiyatiga qarab, oila hamda oilaviy munosabatlar shakllari rivojlanib, o'zgarib borgan. Shu o'rinda, oilada turli yoshdagi avlodlar o'rtasida yuz beradigan ijtimoiy munosabatlarni hisobga olish nihoyatda muhim.

Zero, oilaviy birlik maxsus va shu bilan birga, murakkab ijtimoiy munosabatlardan iboratdir. Ayniqsa, farzand, ota-ona hamda qariyalar o'rtasidagi munosabatlar turli vaziyatda turlicha kechadi. Oiladagi o'zaro munosabatlarning barcha uchun maqbul bo'lishi qariyalarning vazmin, mulohazali, odilona qaroriga ko'p jihatdan bog'liqdir [2].

Shuni ham qayd etish lozimki, uch va undan ko'p avlod birga yashayotgan oilalarda etnomadaniy an'analar ancha mustahkam saqlanadi, uni to'ldiradi. Bunday katta oilalarda

yoshlarning iqtisodiy mustaqilligi shart bo'lmasdan, ularda farzand tarbiyasiga e'tibor ko'proq bo'lgan.

Keksa va keksa odamlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi va davlat ijtimoiy dasturlarida aks ettirilgan.

Aholining qarishi muammolariga davlatning e'tiborini ijtimoiy himoya choralari tizimida – ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar to'lash, keksa yoshdagi odamlarga institutsional yordam xizmatlarini ko'rsatish, ularni protez-ortopedik mahsulotlar, transport vositalari, sanatoriy-kurort muassasalariga chiptalar bilan ta'minlash, uyda homiylik xizmatlarini ko'rsatish. Keksa avlod manfaatlarini himoya qilish dasturlari keksa odamlarning sifatli hayoti uchun maqbul sharoitlarni yaratishga, urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik qilish uchun zarur vositalarni taqdim etishga imkon berdi[3].

Keksalikda muloqot doirasi torayib boradi. Shu sababli oila va do'stlik rishtalari turli sabablarga ko'ra zaiflashadi, shaxs o'zini yolg'iz his qila boshlaydi. Keksalar g'amxo'rlik va e'tiborga muhtojligini, ularning tajriba va bilimlarini atrofdagi odamlarning o'zlashtirish istagida his qiladilar. Do'stona aloqalar va muloqot almashinuvining roli ortib boradi. Shunday qilib, befarqlik keksa odamning psixologik xavfsizligini his qilishiga yomon ta'sir qiladi. Do'stona aloqalarning yo'qligi va muloqot qobiliyatlarining pasayishi hayotining o'zgarishiga olib keladi.

Ayniqsa, keksalar e'tibor va g'amxo'rlikka sezgir bo'ladilar va buning natijasida ularda do'stlikning roli oshadi. Ko'pincha keksalikda odamlar haddan tashqari gapirishni boshdan kechirishadi va nutq keraksiz tushuntirishlar bilan ajralib turadi va mohiyatdan uzoqlashadi. Qoida tariqasida aytib o'tish joizki, bu aloqa yetishmasligidan dalolat beradi [4].

Keksa va faxriylar oila va jamiyatda munosib o'rin egallab, o'z imkoniyati, boy tajribasi, aql-zakovatini namoyon qilishi uchun huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy zamin yaratilgan. Ular oilalarimiz to'rida, mahallalarimiz oqsoqollari sifatida, u yerdagi barcha muammolarni hal etishga bosh jamoatchilik e'tiborida, milliy urf-odat va an'ana, marosimlarni bajarishda murabbiylardir. [2].

Shunday qilib, inson qancha ko'p yashasa, shuncha ko'p narsa, hodisalarni o'rganadi, bilimi va tajribasini keyingi avlodga qoldiradi. Biz uchun keksa va faxriylarimizning o'z oilasi, farzandlari va yaqinlari jamiyatga kerakligini his etib yashashidan yuksak baxt yo'q. Bizning vazifamiz esa keksa avlod qarshisida mas'uliyatimizni har daqiqa anglash, ularning hayotiy rejalariga kamarbasta bo'lishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2015, В.15.

2. Keksalik va ma'naviy meros / Sh. Sodiqova.-Toshkent: «Mahalla va oila nashriyoti», 2022.- 60b.
3. А.Б.Сабирова «Особенности субъектности и эмоциональной сферы человека на поздних этапах онтогенеза», Диссертация.2009. 4-б.
4. Ziyovuddinova Z.Z. «Keksa insonlarning psixologik xususiyatlari» O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 8-son, 2022.- 630 b.
5. <http://www.unfpa.org/ageing/#sthash.hc9Lv00E.dpuf>